

# "O'zkimyosanoat" AJ MES - 2026 Mintaqaviy ekologik sammitida ishtirok etmoqda

// 23.04.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-mes-2026-mintaqaviy-ekologik-sammitida-ish>



Astana shahrida bo'lib o'tayotgan MES -2026 Mintaqaviy ekologik sammitida "O'zkimyosanoat" AJ vakillari ham qatnashmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarga umumiy yechimlar ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan sammitda yashil moliyalashtirish ehtiyojlarini aniqlash, past uglerodli texnologiyalarni jadal rivojlantirish va mintaqaning ekologik barqarorligini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat berilgan. MES-2026 EXPO ko'rgazmasidagi O'zbekiston pavilyoni alohida e'tibor markazida. Unda "O'zkimyosanoat" AJning maxsus stendi joylashtirilib, so'nggi yillarda ekologik yo'nalishda erishilgan natijalar keng jamoatchilikka taqdim etilmoqda.



Jumladan, jamiyatning xalqaro maydondagi nufuzini tasdiqlovchi S&P Global tomonidan berilgan ESG reytingiga oid ma’lumotlar ham namoyish etilmoqda. Shuningdek, stendda Toshkent viloyatining Chirchiq shahrida amalga oshirilayotgan strategik ahamiyatga ega loyihalarga ham alohida urg’u berilgan. Ular orasida ACWA Power bilan hamkorlikda tashkil etilgan “ACWA Power UKS Green H2” qo’shma korxonasi negizidagi yashil vodorod ishlab chiqarish va uni qayta ishlash orqali yashil mineral o’g’itlar tayyorlash tashabbuslari mavjud.

“O’zkimyosanoat” Ajning mazkur sammitdagi ishtiroki nafaqat sohadagi ekologik mas’uliyatni namoyon etadi, balki Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish yo’lidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.





